

Yorqin Payshanba

2025 16 Iyul

2025-yil 17-iyul kuni faqat shu sanada AKSIYA o'tkaziladi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha iqtisodiy hamda biznes klassdagi e'lon qilingan individual tariflarga 15% chegirma taqdim etiladi:

- Toshkentdan / Toshkentga: Grozniy, Yekaterinburg, Irkutsk, Krasnoyarsk, Maxachqala, Milan, Myunxen, Nijniy Novgorod, Novosibirsk, Pekin, Sochi, Ufa
- Navoidan / Vnukovoga va aksincha
- Namangandan / Samaraga va aksincha
- Farg'onadan / Qozon, Novosibirskga va aksincha

Aksiya shartlari:

1. Aksiya o'tkazish muddati — faqat 2025-yil 17-iyul, soat 00:00 dan 23:59 gacha
2. Chegirma faqat yuqorida ko'rsatilgan to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlarda, Uzbekistan Airways AJ tomonidan amalga oshirilayotgan o'z reyslariga (HY operator bo'lgan) qo'llaniladi.

Silk Avia va Uzbekistan Helicopters (HY1001-1100) reyslariga nisbatan amal qilmaydi.

3. Chegirma miqdori:

- o Kattalar uchun — tarifdan 15%
- o 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar hamda salonda alohida o'rindiqli 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun — bolalar chegirmasi qo'llangan holda 15%
- o Salonda alohida o'rindiqsiz 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun chegirma amal qilmaydi.

4. Chiptani qaytarish/pereofomalash holatida — chegirma qayta hisob-kitob to'lovlari (NO-SHOW, qaytarish va h.k.) uchun qo'llanilmaydi. Qisman foydalanilgan chipta uchun qaytariladigan summa — foydalangan yo'l qismining chegirmasiz tarifidan hisoblab chiqariladi.

5. To'liq foydalanilmagan, ammo chegirma bilan rasmiylashtirilgan chiptani qayta rasmiylashtirishda — tarif to'liq darajasigacha chegirmasiz to'lov amalga oshiriladi.

Istisno holatlar:

- o Z klassga ball evaziga ko'tarilish

- o Change Name Policy asosida ism, familiya, pasport ma'lumotlarini o'zgartirish
- 6. Oldin rasmiylashtirilgan chiptani 2025-yil 17-iyulda qayta rasmiylashtirish/perebron qilishda chegirma amal qilmaydi.
- 7. Chegirma bilan rasmiylashtirilgan qisman foydalanilgan chiptani qayta rasmiylashtirishda — chegirma saqlanadi, hisoblash qo'lda amalga oshiriladi.
- 8. Chegirma quyidagi joylarda qo'llaniladi:
 - o Uzbekistan Airways rasmiy sayti: UZS/USD/RUB valyutalarda
 - o O'zbekiston hududida: Uzbekistan Airways Sales filiallarida va rasmiy agentlarida
 - o Chet elda: faqat HY bilan bevosita shartnoma asosida ishlovchi agentlar (kod 250210...)

BSP agentlariga, guruhli bronlarga, CodeShare reyslariga, Silk Avia va Uzbekistan Helicopters reyslariga taalluqli emas.

Saytda — avtomatik rejimda, agentlar — qo'lda 15% chegirma bilan rasmiylashtiradi (CH25% chegirmasiga qo'shimcha ravishda).

- 9. Komissiya belgilangan tartibda saqlanadi.
- 10. Parvoz davri — cheklanmagan, tarif qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Chiptani rasmiylashtirish — joriy jadvalning butun davri uchun ruxsat etiladi.
- 11. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi, bolalar chegirmasidan tashqari.
- 12. CodeShare reyslarida (HY marketing operatori bo'lgan), SPA tariflarida, Uzbekistan Helicopters va Silk Avia reyslarida, guruhli bronlarda qo'llanilmaydi.
- 13. Chegirma qo'llaniladigan yo'nalishlar boshqa yo'nalishlar bilan birlashtirilsa — har bir yo'nalish alohida chiptalarda rasmiylashtiriladi.

Chegirmani grafik rejimda qo'llash tartibi (ADVANCED PRICING bo'limida):

- Global Discount: 15%
- Tegishli katakchani belgilash
- Ticket Designator ni kiritish:
 - o Kattalar uchun — 15
 - o Bolalar uchun — D